

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**TURIZM TARMOG‘INI JADAL RIVOJLANTIRISHGA OID CHORA-TADBIRLAR  
TO‘G‘RISIDA**

Turizm tarmog‘ini rivojlantirish, shu jumladan bugungi kun standartlari va talablariga javob beradigan zamonaviy mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalarini (keyingi o‘rinlarda — mehmonxonalar) qurish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, respublikada mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirishga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son **Farmoniga** muvofiq:

1. Quyidagilar:

2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida mehmonxonalar qurishning maqsadli parametrlari **1-ilovaga** muvofiq;

mehmonxonalar tashkil etish bo‘yicha istiqbolli investitsiya loyihalari ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq;

zamonaviy axborot texnologiyalari tatbiq etiladigan madaniyat obyektlari va muassasalari ro‘yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Madaniyat obyektlari va muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda — Ishchi guruh) **4-ilovaga** muvofiq tarkibda tashkil etilsin va unga quyidagi vazifalar yuklansin:

madaniyat obyektlari va muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha minimal talablarni belgilash;

ikki oy muddatda tadbirkorlik subyektlarining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida madaniyat obyektlari va muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha eng yaxshi takliflarini tanlab olish va ular bilan shartnomalar tuzilishini ta‘minlash;

2019-yil 1-iyulga qadar **3-ilovada** ko‘rsatilgan madaniyat obyektlari va muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘rnatishni ta‘minlash.

3. Shunday mexanizmlar joriy etilsinki, ularga muvofiq:

a) mehmonxona qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi qurilish tugallangandan so‘ng investorga mulk huquqi asosida sotilishi mumkin, moddiy madaniy meros obyektlarining hududi va muhofaza zonasi hamda qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yer uchastkalari bundan mustasno;

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) 3 yulduzli toifa uchun 50 ta xonadan kam bo‘lmagan va 4 yulduzli toifa uchun 100 ta xonadan kam bo‘lmagan xonalar fondiga ega mehmonxona 2023-yil 31-dekabrgacha foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach yangi mehmonxonani qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarining bir qismi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti (keyingi o‘rinlarda — Davlat budjeti) mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Bunda, investorlar xarajatlarining bir qismini Davlat budjetidan moliyalashtirish miqdori qo‘shimcha ravishda tashkil etilayotgan xonalar soni 50 mingga yetguniga qadar kelgusi yil uchun Davlat budjeti parametrlarini tasdiqlash jarayonida ushbu miqdorni har yili indeksatsiya qilgan holda:

*(3-band “b” kichik bandining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi PQ-4755-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.06.2020-y., 07/20/4755/0783-son)*

3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 40 million so‘m;

4 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 65 million so‘mni tashkil qiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda

ikki oy muddatda Yangi mehmonxonani qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarini qoplash uchun Davlat budjetidan mablag' ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. Belgilansinki, dunyoning taniqli va nufuzli mehmonxona brendlaridan (mehmonxona brendlarining top-50 va mehmonxona tarmoqlarining top-5 reytingiga ko'ra) foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan tashkilotlar uchun royalti franchayzing to'g'risidagi shartnoma kuchga kirgan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagi hajmda qisman moliyalashtiriladi:

*(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi PQ-4755-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.06.2020-y., 07/20/4755/0783-son)*

dastlabki 50 ta 3 yulduzli toifaga ega mehmonxona — har bir mehmonxonaning bitta xonasi uchun yillik 200 AQSh dollari ekvivalentida;

dastlabki 30 ta 4 yulduzli toifaga ega mehmonxona — har bir mehmonxonaning bitta xonasi uchun yillik 400 AQSh dollari ekvivalentida.

Bunda tashkilotlar uchun royaltini moliyalashtirishning umumiy hajmi ko'pi bilan 10 million AQSh dollari ekvivalentiga teng bo'ladi.

6. Qonunchilikka binoan mehmonxona xizmatlari yashash joyi (propiska), fuqarolik, jismoniy shaxslarning qarindoshlik va nikoh munosabatlari, shuningdek, shaxsiy hayot huquqini cheklovchi boshqa omillardan qat'i nazar, ko'rsatilishi lozimligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. Belgilab qo'yilsinki:

xostellarni mehmon uylari va xostellar reyestriga o'rnatilgan tartibda kiritish talabini belgilagan holda xostellarning mehmonxona xizmatini majburiy sertifikatsiyalash talabi bekor qilinadi;

hududida turizm infratuzilmasi obyektlari, shu jumladan joylashtirish vositalari joylashgan yoki barpo etiladigan moddiy madaniy meros obyektlari o'ttiz yilga, biroq o'n yildan kam bo'lmagan muddatga ijara beriladi. Bunda ijarachilar besh yillik ijara haqiga teng miqdorni o'zlari joylashgan moddiy madaniy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilishga yo'naltirish hamda moddiy madaniy meros obyektlarini saqlash qoidalariga rioya qilish sharti bilan dastlabki besh yil uchun ijara haqi to'lashdan ozod etiladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi kichik tadbirkorlik subyektlariga turizm infratuzilmasi obyektlari, mehmonxonalar va sanitar-gigiyenik shoxobchalar barpo etish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya taqdim qiladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi turizm loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 2019 — 2021-yillar davomida har yili 1-fevralga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasiga 5 million AQSh dollari ekvivalentidagi pul mablag'larini o'tkazib borsin.

9. Belgilansinki, tadbirkorlik subyektlariga namunaviy, shu jumladan tarmoqli loyihalar asosida zamonaviy sanitar-gigiyenik shoxobchalarni qurish uchun 80 — 100 kvadrat metr o'lchamda yer uchastkalarini elektron auksionga qo'ymasdan olish uchun O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining iltimosnomasiga ko'ra ustuvorlik huquqi taqdim etiladi.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda ularning negizida mehmonxonalar tashkil etish uchun foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirsin;

ikki hafta muddatda tegishli hududda qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan mehmonxonalarini inventarizatsiyadan o'tkazsin;

bir oy muddatda o'tkazilgan inventarizatsiya va o'rganishlar yakunlari asosida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan kelishilgan holda ushbu qarorning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan maqsadli ko'rsatkichlarga muvofiq, yer uchastkalarini ajratish va foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlari bazasida mehmonxonalar tashkil etish oylik tarmoq jadvallari tasdiqlasin;

bir oy muddatda mehmonxonalar qurish uchun ajratilayotgan yer uchastkalari va foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini, ularga muhandislik kommunikatsiyalarining yetib borganligi darajasidan kelib chiqib toifalarga (to'liq, qisman ta'minlangan va muhandislik kommunikatsiyalari mavjud bo'lmagan) ajratgan holda shakllantirishni hamda uni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining axborot maydonlarida va saytlarida joylashtirilishini ta'minlasin;

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi bilan birgalikda yer uchastkalari va davlat mulki obyektlarining taqdimot (planshet)ini tayyorlashni, loyihalar ro'yxatini batafsil ma'lumoti bilan har oyda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining saytiga ("invest.gov.uz") joylashtirishni ta'minlasin;

investorlar tomonidan mehmonxona qurish uchun yer uchastkalari va davlat mulki obyektlarini "E-IJRO AUKSION" elektron savdo maydonida auksionga qo'yilishini ta'minlasin;

har chorakda sotilmagan yer uchastkalari va davlat mulki obyektlari ro'yxatiga ularni investorlar uchun jozibador boshqa yer uchastkalariga almashtirish orqali o'zgartirishlar kiritib borsin;

har yili xostellar va mehmon uylarini tashkil qilish dasturini tasdiqlash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi bilan birgalikda shaharlar va aholi punktlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda respublikaning har bir yirik shahrida xostellar va mehmon uylari tarmog'ining mavjud bo'lishini nazarda tutsin;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda uch oy muddatda investorlarni izlashni amalga oshirsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ikki yil davomida investorlar tomonidan zamonaviy talablarga javob beradigan, sanitar-gigiyenik shoxobchalarga ega savdo nuqtalari va turizm infratuzilma obyektlarining yagona tarmog'ini qurish, bunda ularni birinchi navbatda ko'p tashrif buyuriladigan turizm namoyishi obyektlari va turizm marshrutlari o'tadigan avtomagistralar yoqasida joylashtirish bo'yicha takliflar kiritisin.

11. Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Xorazm viloyati hokimliklari Madaniyat vazirligi, Qurilish vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya bilan birgalikda Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Xiva shaharlarining tarixiy va qo'riqlanadigan hududlarida rejalashtirilgan bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlarni YUNESKOning Butunjahon merosi markazi bilan avvaldan kelishsin.

12. Quyidagilarga:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga — mehmonxonalar qurish uchun yer uchastkalarini o'z vaqtida ajratish, investorlar arizasiga asosan ularni zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining investitsiyalar bo'yicha o'rinbosarlari zimmasiga — O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalari bilan birgalikda xorijiy investorlarni izlash va jalb qilish, shuningdek, ularga O'zbekiston Respublikasi hududida tegishli investitsiya loyihalarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida amaliy yordam berishni samarali ta'minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

13. Quyidagilarga:

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari A.J. Ramatov zimmasiga — mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan mehmonxona qurilishi uchun yer maydonlarining o'z vaqtida ajratilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari S.R. Xolmuradov zimmasiga — tijorat banklari tomonidan kredit mablag‘larining o‘z vaqtida ajratilishi, investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya masalalari bo‘yicha hokim o‘rinbosarlari faoliyatining samaradorligi ustidan nazorat o‘rnatish vazifasi yuklansin.

14. Belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatga muvofiq 2022-yilning 1-yanvariga qadar olib kiriladigan, turistlar tashrif buyuradigan joylarga o‘rnatiladigan antivandal sanitariya-gigiyena shoxobchalari, shuningdek, moddiy madaniy meros obyektlari, muzeylar, teatrlar, galereyalar va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar uchun mo‘ljallangan asbob-uskunalar, jihozlar, turniketlar, dasturiy ta‘minot, to‘lov-ma‘lumot terminallari, videokuzatuv tizimlari bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari) ozod etilsin.

Davlat soliq qo‘mitasi Davlat bojxona qo‘mitasi bilan birgalikda ushbu qaror doirasida olib kiriladigan tovarlardan maqsadli foydalanish ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatilsin.

Belgilansinki, tovarlardan maqsadsiz foydalanilgan taqdirda imtiyozlar berilishi munosabati bilan to‘lanmagan bojxona to‘lovlari summasi qonun hujjatlarida belgilangan moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilgan holda Davlat budjetiga undirib olinadi.

15. Quyidagilar:

a) mehmonxonalar olishi kerak bo‘lgan:

mehmonxonaga tegishli bo‘lgan va uning ichida joylashgan alkogol mahsulotlari sotuvi bilan shug‘ullanadigan har bir chakana savdo nuqtalari va umumiy ovqatlanish obyektlari (bar, mini-bar, kafe, restoran) uchun alohida ruxsat guvohnomasi;

aeroportdan, temir yo‘l/avtoyo‘l vokzallaridan mehmonxonaga va undan qaytishga, shuningdek, turizm obyektlariga o‘zining ijarachilariga transport xizmatlarini ko‘rsatish uchun litsenziya;

b) shahar va shaharlararo yo‘lovchi tashuvchi tadbirkorlik subyektlaridan mahalliy va xorijiy fuqarolarga mamlakat bo‘ylab nomuntazam, shaharlararo yo‘lovchi tashish uchun tegishli litsenziyaga ega avtobus yoki kichik avtobus xizmatlarini ko‘rsatish uchun qo‘shimcha litsenziya olish talablari bekor qilinsin.

16. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalariga ijtimoiy reklama sharti bilan mamlakatning turizm salohiyatini targ‘ib qilishga oid tashqi reklama joylashtirilishi uchun har bir tumanda uchtdan kam bo‘lmagan, shaharlarda beshtadan kam bo‘lmagan joylar ajratilishi va qurilishini ta‘minlasin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlari, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019-yilning 1-fevraliga qadar foto va videotasvirga olish mumkin bo‘lmagan obyektlar, jamoat joylari va hududlarning ro‘yxatini tasdiqlasin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq 2019-yilning 1-martiga qadar foto va videotasvirga olish taqiqlangan tegishli ko‘rsatkich belgilarni ikki va undan ortiq (ingliz, rus va boshqa) tillarda o‘rnatilishini ta‘minlasin. Bunda, tegishli ko‘rsatkich belgilari bo‘lmagan taqdirda foto va videotasvirga olishga to‘sqinlik qilinmaydi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Moliya vazirligi bir oy muddatda madaniyat obyektlari va muassasalariga kirish chipta narxlarini belgilash tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

20. Vazirlik va idoralar bir oy muddatda qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

21. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A. Abduxakimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 5-yanvar,  
PQ-4095-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son qaroriga  
1-ILOVA

**2019 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalar qurishning**

**MAQSADLI PARAMETRLARI**

Hududlarning nomi	2018-yildagi holat		Mehmonxonalar qurishning parametrlari						2021-yil yakunidagi holat			
			2019-yil		2020-yil		2021-yil				2019 — 2021-yillarda jami	
	soni		soni		soni		soni		soni			
	mehmonxonalar	kona-lar	mehmonxonalar	kona-lar	mehmonxonalar	ar	mehmonxonalar	lar	mehmonxonalar	ar	mehmonxonalar	kona-lar
<b>Jami:</b>	<b>886</b>	<b>19832</b>	<b>212</b>	<b>4664</b>	<b>511</b>	<b>10122</b>	<b>785</b>	<b>15426</b>	<b>1 508</b>	<b>30212</b>	<b>2 394</b>	<b>50044</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	31	515	12	252	30	551	46	835	88	1638	119	2153
Andijon viloyati	18	507	9	171	22	361	33	547	64	1079	82	1586
Buxoro viloyati	160	2139	29	599	71	1306	109	2027	209	3932	369	6071
Jizzax viloyati	29	493	10	200	23	430	36	649	69	1279	98	1772
Qashqadaryo viloyati	38	731	12	252	30	551	46	834	88	1637	126	2368
Navoiy viloyati	20	499	7	151	18	334	27	501	52	986	72	1485
Namangan viloyati	126	2278	7	147	16	277	25	415	48	839	174	3117
Samarqand viloyati	13	195	30	773	76	1703	117	2636	223	5112	236	5307
Sirdaryo viloyati	33	785	6	205	24	442	37	668	67	1315	100	2100

Surxondaryo viloyati	33	73 9	3	55	8	12 8	12	201	23	38 4	56	1 12 3
Toshkent viloyati	48	1 18 1	15	29 5	35	64 7	54	983	104	1 92 5	152	3 10 6
Farg'ona viloyati	67	1 35 0	12	23 7	28	51 5	43	780	83	1 53 2	150	2 88 2
Xorazm viloyati	67	1 56 1	19	29 0	31	63 7	48	967	98	1 89 4	165	3 45 5
Toshkent shahar	203	6 85 9	41	1 03 7	99	2 24 0	152	3 383	292	6 66 0	495	13 51 9

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son qaroriga  
2-ILOVA

### Mehmonxonalar tashkil etish bo'yicha istiqbolli investitsiya loyihalari

#### RO'YXATI

T/r	Tashabbuskor	Loyiha to'g'risida qisqacha ma'lumot	Loyiha qiymati		Moliyalashtirish manbasi			Ish o'rinlari soni	Amalg a oshirish muddati
			ming AQS h dollari	ml n. so' m	Tashabbus kor mablag'i (mln. so'm)	Bank kredi t liniya si (mln. so'm)	Xorijiy investitsiya lar, XMI mablag'i		
<b>Jami</b>			<b>240 775</b>	<b>1 398 000</b>	<b>791 760</b>	<b>606 240</b>	<b>240 775</b>	<b>5 784</b>	
<b>Andijon viloyati</b>									
<b>Jami</b>				<b>128 150</b>	<b>28 250</b>	<b>99 900</b>		<b>405</b>	
1.	“Marin business trade” MChJ	Andijon sh. mehmonxona va bolalar attraksionlari qurish		96 000	24 000	72 000		300	2019-yil iyun
2.	“Agrotour Technovation” MChJ	Andijon sh. mehmonxona qurish		26 000	2 000	24 000		50	2019-yil noyabr
3.	“Andijonmobile” MChJ	Andijon sh. mehmonxona qurish		3 650	750	2 900		35	2019-yil oktyabr
4.	“Andijon turist” MChJ	Andijon sh. mehmonxona qurish		2 500	1 500	1 000		20	2019-yil mart

**Buxoro viloyati**

	<b>Jami</b>		<b>21 400</b>	<b>272 500</b>	<b>193 900</b>	<b>78 600</b>	<b>21 400</b>	<b>964</b>	
5.	“Golden Plaza Buxara” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		5 000	4 000	1 000		10	2019-yil oktyabr
6.	“Muslima Mubina Maftuna” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		15 400	9 000	6 400		40	2019-yil iyul
7.	“Kogon suv qurilish” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		10 000	10 000			35	2020-yil sentyabr
8.	“Beston Machinery” MChJ	Buxoro sh. 500 xona fondiga ega mehmonxonona qurish	2 500	16 000		16 000	2 500	50	2019-yil sentyabr
9.	“Buxoro Romish” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		8 000	3 000	5 000		20	2019-yil dekabr
10.	“Mukimov Mirshod Dilshodovich” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		3 000	1 000	2 000		10	2019-yil dekabr
11.	“Kuxandiz-Buxoro” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		12 000	9 000	3 000		30	2019-yil avgust
12.	“Grand Group Plyus” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		20 000	20 000			20	2019-yil dekabr
13.	“Xosiyatli Qorako‘l Nuri” MChJ	Qorako‘l tumanida mehmonxonona qurish		1 200	1 200			8	2019-yil aprel
14.	“Orient Star Notels” MChJ	Buxoro sh. “Varaxsha” mehmonxonona sini qurish		10 000	10 000			35	2019-yil dekabr
15.	“Ancient Bukhara” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		8 000	8 000			20	2019-yil dekabr
16.	“Super Global Trans Servis” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		6 000	6 000			14	2020-yil dekabr
17.	“Gala Osiyo Omad Invest” MChJ	Buxoro sh. mehmonxonona qurish		5 000	3 000	2 000		10	2019-yil dekabr

18.	“Maroqand MChJ”	Buxoro sh. mehmonxona qurish		6 000	6 000			10	2019-yil sentyabr
19.	“Buxoro Marvarid” MChJ	Buxoro sh. mehmonxona qurish		2 500	2 500			3	2019-yil noyabr
20.	“Muxabbat Xayri Saxovat” MChJ	G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan, Kogon tumanlarida mehmonxona qurish		15 000	5 000	10 000		70	2019-yil noyabr
21.	“Kino-Riko” MChJ	Buxoro sh. mehmonxona qurish		32 000	32 000			85	2020-yil sentyabr
22.	“Odil Lyuks Servis” oilaviy korxonasi	Buxoro sh. mehmonxona qurish		2 400	1 200	1 200		10	2020-yil sentyabr
23.	Yusupova Nargiza Samiyevna	Buxoro sh. mehmonxona qurish		7 000	2 000	5 000		10	2020-yil dekabr
24.	“OFS” MChJ	Buxoro sh. mehmonxona qurish		4 000	4 000			15	2020-yil dekabr
25.	“Muxabbat xayri saxovat” MChJ	Vobkent tumanida mehmonxona qurish		9 000	4 500	4 500		15	2019-yil noyabr
26.	“Billur BShS” MChJ	G‘ijduvon tumanida mehmonxona qurish		1 500	1 000	500		6	2019-yil dekabr
27.	Haitova Mahtob	Buxoro sh. mehmonxona qurish		7 000	5 000	2 000		6	2019-yil dekabr
28.	Muxammedov Tolib Xolovich	Buxoro sh. mehmonxona qurish		7 000	4 500	2 500		3	2019-yil aprel
29.	Safarova Zilola Timurovna	Buxoro sh. mehmonxona qurish		5 000	2 500	2 500		14	2019-yil sentyabr
30.	Raximov Ilxom	Buxoro sh. mehmonxona qurish		2 500	2 000	500		10	2019-yil iyul



31.	“Rlaza Notel Group” Gmbh	Buxoro sh. mehmonxona qurish	12 000				12 000	100	2020-yil dekabr
32.	Alimbekov Zafarbek	Romitan tumanida mehmonxona qurish		5 000	5 000			15	2019-yil dekabr
33.	“Adolat Avto Trans” MChJ	Olot tumanidagi mehmonxonani kengaytirish		3 000	1 000	2 000		10	2019-yil may
34.	“Sakina Servis” MChJ	Buxoro sh. mehmonxona qurish		8 000	5 000	3 000		20	2019-yil dekabr
35.	“YASMN” oilaviy korxonasi	Buxoro sh. mehmonxona qurish		7 000	7 000			20	2020-yil dekabr
36.	“Spetskomplekt org” MChJ	Buxoro sh. mehmonxona qurish		10 000	3 000	7 000		15	2020-yil dekabr
37.	“Big Large” MChJ	Buxoro sh. mehmonxona qurish		6 000	3 500	2 500		25	2019-yil iyun
38.	“Wide tent system” AJ (Buyuk Britaniya)	Buxoro sh. eski “Buxara Palas” mehmonxonasi ni rekonstruksiya qilish	3 400				3 400	100	2019-yil noyabr
39.	“Bunyodkor Sroy Kompleks” MChJ	Buxoro sh. mehmonxona qurish		8 000	8 000			40	2019-yil iyul
40.	“Metric Ventures” MChJ (Hindiston)	Buxoro sh. mehmonxona qurish	3 500				3 500	50	2020-yil dekabr
41.	“Muxammadali-plaza” MChJ	Romitan tumanida mehmonxona qurish		5 000	5 000			10	2019-yil aprel
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>									
	<b>Jami</b>		<b>10 000</b>	<b>86 800</b>	<b>15 700</b>	<b>71 100</b>	<b>10 000</b>	<b>218</b>	
42.	“Al Amakin al-Alamiy” Korporatsiya	Nukus sh. mehmonxona qurish	10 000				10 000	30	2020-yil dekabr

43.	“Sultanbek Nukus” MChJ	Nukus sh. 7 qavatli mehmonxona qurish		50 000	5 000	45 000		80	2020-yil dekabr
44.	“Ayum tur” XT	Nukus sh. mehmonxona qurish		20 000	5 000	15 000		40	2019-yil dekabr
45.	“Nitsa Nukus” MChJ	Nukus sh. mehmonxona qurish		6 000	2 000	4 000		20	2019-yil dekabr
46.	“Exclusive Cup” MChJ	Nukus sh. mehmonxona qurish		4 000	1 200	2 800		8	2019-yil fevral
47.	“Ayum tur” XT	Nukus sh. mehmonxona qurish		5 500	2 000	3 500		20	2019-yil dekabr
48.	“Sultan super servis” MChJ	Nukus sh. mehmonxona qurish		1 300	500	800		20	dekabr 2019-yil
<b>Xorazm viloyati</b>									
	<b>Jami</b>			<b>37 000</b>	<b>274 950</b>	<b>180 560</b>	<b>94 390</b>	<b>37 000</b>	<b>1 161</b>
49.	Raximov Doniyor	Urganch sh. mehmonxona qurish		16 000	6 000	10 000		20	2020-yil yanvar
50.	“Xorazm Beklari” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		7 000	500	6 500		20	2019-yil oktyabr
51.	“Shovot Grand Plaza” unitar korxon	Urganch sh. mehmonxona qurish		34 000	14 000	20 000		35	2019-yil aprel
52.	“Xorazm Universal Express trans” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		1 400	1 400			20	2019-yil iyun
53.	“Virjinya Plyus” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		7 700	2 000	5 700		20	2019-yil dekabr
54.	“Osiyo drink” XT	Urganch sh. mehmonxona qurish		10 000	5 000	5 000		25	aprel 2019-yil
55.	“Xorazm Zafar Invest” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		8 300	8 300			35	2020-yil dekabr
56.	“Bobur Trans Logistik” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		7 000	2 000	5 000		20	2020-yil mart
57.	“Nalij Uzbekistan Tour” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		4 100	4 100			25	2020-yil dekabr

58.	“Grand Develop” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		4 100	4 100			35	2020-yil dekabr
59.	“Shiddat Monolit” XK	Urganch sh. mehmonxona qurish		8 300	8 300			35	2020-yil dekabr
60.	“Baxor Turizm service” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		8 300	8 300			30	2021-yil mart
61.	“Xorazm Ko'hi Nur” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		8 300	8 300			25	2020-yil dekabr
62.	“Zukhro Travel” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		8 300	8 300			20	2021-yil mart
63.	“Vegan Agrotek Service” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		8 300	8 300			35	2019-yil yanvar
64.	“Xorazm Beklari” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		7 000	500	6 500		20	2019-yil iyun
65.	“Urganch Palace” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		4 500	3 000	1 500		20	2019-yil mart
66.	“Polvon qori” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		8 000	8 000			25	2019-yil may
67.	“Navro'z” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		6 000	5 000	1 000		15	2019-yil may
68.	“Turkezm” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish	1 000				1 000	30	2020-yil sentyabr
69.	“Rent Service Group” XK	Urganch sh. mehmonxona qurish	1 000				1 000	35	2020-yil mart
70.	“Kaz Development Invest Group” MChJ	Urganch sh. mehmonxona va restoran qurish	20 000				20 000	70	2019-yil dekabr
71.	“Yoshlar Turizmi Agentligi” MChJ	Urganch sh. mehmonxona va restoran qurish		14 900	14 900			30	2019-yil noyabr
72.	“Bek Tur” MChJ	Urganch sh. mehmonxona va restoran qurish		1 300	1 000	300		15	2019-yil aprel

73.	“Pearl Khiva” MChJ	Urganch sh. mehmonxona va restoran qurish		3 000	2 000	1 000		18	2019- yil iyul
74.	“Xiva Sazanchik” MChJ	Urganch sh. mehmonxona , restoran va kafe qurish		3 000	1 500	1 500		10	2019- yil iyul
75.	“Xiva Xudayberdi” MChJ	Urganch sh. mehmonxona , restoran va kafe qurish		1 400	800	600		20	2019- yil aprel
76.	“Stan Trip” oilaviy korxonasi	Urganch sh. mehmonxona qurish		600	420	180		6	2019- yil yanvar
77.	“La'li Opa” XK	Urganch sh. mehmonxona qurish		500	200	300		5	2019- yil iyun
78.	“Xiva Xumora” oilaviy korxonasi	Urganch sh. mehmonxona qurish		350	50	300		4	2019- yil mart
79.	“Xiva Shaxrizoda” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		2 300	500	1 800		24	2019- yil oktyab r
80.	“Xiva Fayz” MChJ	Urganch sh. mehmonxona va restoran qurish		3 300	2 500	800		15	2019- yil iyun
81.	“Xorazm Tur Plyus” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		16 600	16 600			45	2020- yil avgust
82.	“ESAR Consulting” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish	1 000				1 000	35	2020- yil iyun
83.	“Xiva Lokomotiv” MChJ	Urganch sh. mehmonxona va restoran qurish		10 000	2 000	8 000		25	2019- yil noyabr
84.	“Xiva Lokomotiv” MChJ	Urganch sh. mehmonxona qurish		6 000	2 000	4 000		15	2019- yil noyabr
85.	“Plaza Notelgroup GmbN” kompaniya	Urganch sh. mehmonxona qurish	14 000				14 000	100	2020- yil dekabr
86.	“Bog'ot Mega Kemping” MChJ	Bog'ot tumanida mehmonxona qurish		15 000	4 000	11 000		10	2019- yil noyabr

87.	“Gurlan Bexruz” XK	Gurlan tumanida mehmonxonalar qurish		1 400	400	1 000		3	2019-yil avgust
88.	“Urganch Ishonch Service” MChJ	Urganch tumanida mehmonxonalar qurish		1 500	300	1 200		20	2019-yil may
89.	“Nazarov Anvar Davronbekovich” XK	Urganch tumanida mehmonxonalar qurish		5 400	5 400			35	2019-yil yanvar
90.	“Metan Motors Group” MChJ	Urganch tumanida mehmonxonalar, restoran va avtoturargoh qurish		16 600	16 600			80	2020-yil avgust
91.	Sultonov Jumanazar	Xazorasp tumanida mehmonxonalar qurish		2 000	1 300	700		5	2019-yil dekabr
92.	“Xiva xisobchi” MChJ	Xiva tumanida mehmonxonalar qurish		2 500	2 500			18	2019-yil sentyabr
93.	Sodikova Nargiza Baxodirovna	Yangiariq tumanida oilaviy mehmon uylari tashkil etish		100	40	60		2	2019-yil avgust
94.	Masharipov Kuvondik Rustamovich	Yangiariq tumanida oilaviy mehmon uylari tashkil etish		200	50	150		2	2019-yil avgust
95.	Xa Tatyana Nikolayevna	Yangiariq tumanida oilaviy mehmon uylari tashkil etish		200	50	150		2	2019-yil avgust
96.	Yuldoshev Muzaffar Kodirberganovich	Yangiariq tumanida oilaviy mehmon uylari tashkil etish		200	50	150		2	2019-yil avgust
<b>Namangan viloyati</b>									

	<b>Jami</b>		<b>400</b>	<b>39 600</b>	<b>24 600</b>	<b>15 000</b>	<b>400</b>	<b>130</b>	
97.	“Orzu tur grand” MChJ	Namangan sh. mehmonxona qurish		12 000	3 000	9 000		20	2019-yil sentyabr
98.	“BUYUK” XK	Namangan sh. mehmonxona qurish		16 100	10 600	5 500		20	2019-yil dekabr
99.	“To‘maris Savdo Grand” MChJ	Namangan sh. mehmonxona qurish		10 000	10 000			30	2019-yil mart
100.	Abduraxmonova Sadriya Nodirovna	Pop tumanida mehmonxona va dam olish zonasi qurish	400				400	40	2019-yil iyun
101.	“Chor sayyox yuksalish” MChJ	Chortoq tumanida mehmonxona qurish		1 500	1 000	500		20	2019-yil dekabr
<b>Navoiy viloyati</b>									
	<b>Jami</b>			<b>76 700</b>	<b>24 700</b>	<b>52 000</b>		<b>206</b>	
102.	“Navoiy tinch tekstil” MChJ	Navoiy sh. mehmonxona qurish		25 500	5 500	20 000		20	2019-yil dekabr
103.	“Sharq qurilishi servis” MChJ	Karmana tumanida mehmonxona qurish		12 000	3 000	9 000		45	2019-yil iyun
104.	“Qiziltepa beton qurilish montaj servis” MChJ	Navoiy sh. mehmonxona qurish		10 000	4 000	6 000		20	2019-yil dekabr
105.	“Mystorius Asia” MChJ QQ	Navoiy sh. mehmonxona qurish		8 200	4 100	4 100		10	2019-yil dekabr
106.	“Vella Plyus” MChJ	Navoiy sh. mehmonxona qurish		8 000	3 000	5 000		21	2019-yil mart
107.	“Export Plast Product” MChJ	Karmana tumanida mehmonxona qurish		6 000	1 500	4 500		50	2019-yil dekabr
108.	“Navoiy Spets Obuv” MChJ	Navoiy sh. mehmonxona qurish		4 500	2 500	2 000		30	2019-yil aprel

10 9.	“Botir Raimjon Jaxongir” oilaviy korxonasi	Xatirchi tumanida mehmonxonona qurish		2 500	1 100	1 400		10	2020- yil oktyab r
<b>Qashqadaryo viloyati</b>									
	<b>Jami</b>			<b>975</b>	<b>58 500</b>	<b>29 000</b>	<b>29 500</b>	<b>975</b>	<b>277</b>
11 0.	“Tong Suv Qurilish” MChJ	Qarshi sh. mehmonxonona qurish		10 000	7 000	3 000		20	2019- yil avgust
11 1.	“Nazira” XK	Qarshi sh. tumanida mehmonxonona qurish		25 000	10 000	15 000		30	2019- yil mart
11 2.	“Ko‘hna turon” MChJ	Shahrisabz sh. mehmonxonona va dam olish zonasi qurish		15 000	5 000	10 000		100	2019- yil mart
11 3.	Isayeva Nargiza	Qarshi sh mehmonxonona qurish		5 000	4 000	1 000		20	2019- yil mart
11 4.	“Dubay Sarbon LTD” MChJ	Qarshi sh. mehmonxonona qurish	850	1 500	1 500		850	80	2019- yil dekabr
11 5.	“Shahrisabz eko tur” MChJ	Shahrisabz sh. mehmonxonona zonasi qurish	125	1 000	1 000		125	20	2019- yil sentya br
11 6.	“Everest S” MChJ	Qarshi sh. mehmonxonona qurish		1 000	500	500		7	yanvar 2019- yil
<b>Jizzax viloyati</b>									
	<b>Jami</b>			<b>7 950</b>	<b>4 350</b>	<b>3 600</b>		<b>48</b>	
11 7.	“Jizzakh leader food”	Jizzax sh. mehmonxonona qurish		4 000	2 700	1 300		20	2019- yil aprel
11 8.	“Sof marvarid ummoni”	Zomin tumanida mehmonxonona qurish		3 000	1 000	2 000		14	2019- yil mart
11 9.	Suyunov Okilbek	Baxmal tumanida mehmonxonona qurish		150	150			2	2019- yil aprel
12 0.	Suyunov Okilbek	Baxmal tumanida mehmonxonona qurish		150	150			2	2019- yil aprel

12 1.	Saparova Roza	Baxmal tumanida mehmonxona qurish		150	150			2	2019-yil aprel
12 2.	Abdumutalipov Islambek	Baxmal tumanida kemping kompleksi qurish		500	200	300		8	2019-yil may
<b>Toshkent viloyati</b>									
	<b>Jami</b>		<b>10 000</b>	<b>114 000</b>	<b>111 500</b>	<b>2 500</b>	<b>10 000</b>	<b>746</b>	
12 3.	Ibragimov Akbar	Bekobod tumanida mehmonxona va umumiy ovqatlanish shoxobchasi qurish		2 200	2 200			35	2019-yil noyabr
12 4.	“Azizbek Zeboxon Omad” MChJ	Bekobod tumanida mehmonxona va umumiy ovqatlanish shoxobchasi qurish		2 000	2 000			10	2019-yil fevral
12 5.	“Orient Trading Future” MChJ	Bo‘ka tumanida mehmonxona qurish		3 500	3 500			35	2020-yil dekabr
12 6.	“Serenada” MChJ	Nurafshon sh. mehmonxona qurish		2 200	700	1 500		15	2019-yil dekabr
12 7.	“Anhui Shuan Construction Group” kompaniyasi	Nurafshon sh. mehmonxona qurish	10 000				10 000	45	2020-yil iyun
12 8.	“GGM and JEM” MChJ	Ohangaron tumanida mehmonxona, savdo kompleksi va texnik xizmat ko‘rsatish markazi qurish		25 000	25 000			170	2019-yil aprel
12 9.	“Temir ota” MChJ	Ohangaron tumanida mehmonxona qurish		2 500	1 500	1 000		12	2020-yil avgust



130.	“Nazokat” MChJ	Parkent tumanida mehmonxona va turizm kompleksini qurish	8 000	8 000			20	2021-yil sentyabr
131.	Safarov Rustam Sadikovich	Parkent tumanida mehmonxona va turizm kompleksini qurish	3 500	3 500			10	2020-yil mart
132.	MChJ “Sanganak Biznes Omad”	Parkent tumanida mehmonxona va turizm kompleksini qurish	3 500	3 500			30	2020-yil mart
133.	Baxadir Kuchkarovich Begabayev	Parkent tumanida mehmonxona va turizm kompleksini qurish	8 000	8 000			30	2020-yil mart
134.	“Nazokat” MChJ	Parkent tumanida mehmonxona va turizm kompleksini qurish	2 000	2 000			30	2020-yil mart
135.	“Steyel Star” MChJ	O‘rtachirchiq tumanida mehmonxona qurish	12 100	12 100			14	2019-yil iyul
136.	“Abdullayev Azim Fayzulla” MChJ	O‘rtachirchiq tumanida mehmonxona qurish	9 500	9 500			65	2019-yil iyul
137.	“Aziya Region Oil” MChJ	O‘rtachirchiq tumanida motel va umumiy ovqatlanish shoxobchasi qurish	13 000	13 000			60	2019-yil oktyabr
138.	Umarxo‘jayeva Kamola Saidaxmatovna	O‘rtachirchiq tumanida mehmonxona qurish	9 500	9 500			65	2019-yil iyul

139.	Xoshimov Raxmatilla Muxtarovich	O'rtachirchiq tumanida mehmonxona va eko-bog' kompleksini qurish		4 000	4 000			60	2019-yil sentyabr
140.	"Asror Xamkor" MChJ	O'rtachirchiq tumanida mehmonxona kompleksi qurish		3 500	3 500			40	2019-yil oktyabr
<b>Farg'ona viloyati</b>									
	<b>Jami</b>			<b>48 000</b>	<b>29 250</b>	<b>18 750</b>		<b>167</b>	
141.	"Notel Asia-Fergana" QK	Farg'ona sh. mehmonxona xizmatini kengaytirish		16 000	10 000	6 000		20	2019-yil dekabr
142.	"Matxalikov Abdunabi Fayzi" MChJ	Farg'ona sh. mehmonxona xizmatini kengaytirish		15 000	10 000	5 000		30	2019-yil mart
143.	"Farg'ona mehmonxonasi" MChJ	Farg'ona sh. mehmonxona xizmatini kengaytirish		6 000	1 800	4 200		55	2019-yil dekabr
144.	"Vodiy visol oqshomi" MChJ	Farg'ona sh. mehmonxona xizmatini kengaytirish		5 000	3 000	2 000		10	2019-yil dekabr
145.	"Istiqlol-LRM" MChJ	Toshloq tumanida mehmonxona qurish		3 000	3 000			25	2019-yil oktyabr
146.	"Yangiobod kapital qurilish invest" MChJ	Farg'ona sh. mehmonxona xizmatini kengaytirish		1 500	700	800		12	2019-yil may
147.	"Turkiston obod kelejagi" QK	Marg'ilon sh. mehmonxona qurish		1 500	750	750		15	2019-yil dekabr
<b>Samarqand viloyati</b>									
	<b>Jami</b>			<b>33 000</b>	<b>189 700</b>	<b>130 000</b>	<b>33 000</b>	<b>587</b>	
148.	"Fly horses" MChJ	Payariq tumanida mehmonxona qurish		6 200	6 200			10	2019-yil sentyabr

149.	“Dobusiya” MChJ	Samarqand sh. mehmonxona qurish		5 000	5 000			30	2019-yil noyabr
150.	“Samarqand baxt servis” MChJ	Samarqand sh. mehmonxona qurish		2 900	900	2 000		15	2019-yil noyabr
151.	“Evro asia hotel” MChJ	Samarqand sh. mehmonxona qurish		4 500	2 200	2 300		7	2019-yil sentyabr
152.	“Parviz Proekt Servis” MChJ	Samarqand sh. mehmonxona qurish		2 000	500	1 500		15	2019-yil sentyabr
153.	“Latif tur servis” MChJ	Samarqand sh. mehmonxona qurish		2 000	1 000	1 000		5	2019-yil sentyabr
154.	“Rabot polietilen servis” MChJ	Samarqand sh. mehmonxona qurish		1 700	1 700			20	2019-yil noyabr
155.	“Ergash ota” MChJ	Kattaqo‘rg‘on tumanida mehmonxona qurish		3 000	1 000	2 000		25	2019-yil avgust
156.	“Payshanba diyor servis” MChJ	Kattaqo‘rg‘on tumanida mehmonxona qurish		2 400	1 200	1 200		10	2019-yil avgust
157.	“Plaza Notelgroup GmbN”	Samarqand sh. mehmonxona qurish	19 000				19 000	200	2019-yil dekabr
158.	“Plaza Notelgroup GmbN”	Samarqand sh. mehmonxona qurish	14 000				14 000	150	2019-yil dekabr
159.	“Mirankul Group Tower” MChJ	Samarqand sh. mehmonxona qurish		160 000	40 000	120 000		100	2019-yil dekabr
<b>Sirdaryo viloyati</b>									
	<b>Jami</b>			<b>9 150</b>	<b>4 250</b>	<b>4 900</b>		<b>78</b>	
160.	“Xalq tanlovi 2018” MChJ	Guliston sh. mehmonxona va restoran qurish		8 500	4 000	4 500		70	2019-yil dekabr

16 1.	“Gul mahal” MChJ	Guliston sh. mehmonxona qurish		450	200	250		5	2019- yil oktyab r
16 2.	“Murod orzusi sari” MChJ	Guliston sh. mehmonxona qurish		200	50	150		3	2019- yil noyabr
<b>Surxondaryo viloyati</b>									
	<b>Jami</b>			<b>8 000</b>	<b>2 000</b>	<b>6 000</b>		<b>67</b>	
16 3.	“Ko‘xitang sharsharali bog‘lari”	Sherobod tumanida mehmonxona qurish		2 500	500	2 000		8	2019- yil avgust
16 4.	“Yangi yo‘l imkoniyat” MChJ	Uzun tumanida mehmonxona qurish		1 500	500	1 000		22	2019- yil avgust
16 5.	“Muxammadyus uf grand biznes” MChJ	Uzun tumanida mehmonxona qurish		1 500	500	1 000		20	2019- yil avgust
16 6.	“Kamalak” XK	Uzun tumanida mehmonxona qurish		1 200	200	1 000		5	2019- yil dekabr
16 7.	“Oltin voha universal servis” MChJ	Termiz sh. mehmon uyi qurish		1 300	300	1 000		12	2019- yil sentya br
<b>Toshkent shahar</b>									
	<b>Jami</b>		<b>128 000</b>	<b>84 000</b>	<b>84 000</b>		<b>128 000</b>	<b>730</b>	
16 8.	“Inter tourism” MChJ	Shayxontohu r tumanida 4 yulduzli mehmonxona qurish	33 000				33 000	350	2019- yil dekabr
16 9.	“Kompressor Montaj Story” MChJ	Shayxontohu r tumanida mehmonxona qurish	8 000				8 000	50	2020- yil dekabr
17 0.	“Radisson Blue” QK	Yunusobod tumanida mehmonxona qurish	50 000	81 000	81 000		50 000	80	2020- yil dekabr
17 1.	“Plaza Notelgroup GmbN” kompaniyasi	Mirzo Ulug‘bek tumanida mehmonxona qurish	25 000				25 000	200	2019- yil dekabr

17 2.	“Premium Build Invest” MChJ	Yakkasaroy tumanida mehmonxona qurish	12 000	3 000	3 000		12 000	50	2019- yil dekabr
----------	-----------------------------	---------------------------------------	-----------	----------	-------	--	--------	----	------------------------

Izoh:

1. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va pudratchi (yoki yetkazib beruvchi) tashkilotlarni aniqlash natijalari bo'yicha parametrlarga aniqlik kiritiladi.

2. Ro'yxatga, zarurat bo'lganda, Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son qaroriga  
3-ILOVA

## Zamonaviy axborot texnologiyalari tatbiq etiladigan madaniyat obyektlari va muassasalari

### RO'YXATI

T/r	Madaniyat obyektlari va muassasalari nomi								
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>									
1.	I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi								
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi								
3.	Mo'ynoq ekologiya muzeyi								
4.	Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat musiqali teatri								
<b>Andijon viloyati</b>									
5.	Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi								
6.	Adabiyot va san'at bo'limi								
7.	Bobur xotirasi bo'limi								
8.	Paxtaobod tumani tarixi muzeyi								
9.	Tasviriy san'at bo'limi								
10.	Cho'lpon xotirasi bo'limi								
<b>Buxoro viloyati</b>									
11.	“Gavkushon” ansambli								
12.	“Chashmai Ayub” mavzoleyi								
13.	“Said Bandi Kusho” mavzoleyi								
14.	Nug'ay karvon-saroyi								
15.	“Ulug'bek” madrasasi								
16.	“Abdulazizxon” madrasasi								
17.	“Toqi Zargaron”								
18.	“Toqi Telpakfurushon”								
19.	“Toqi Sarrafon”								
20.	“Timi Abdullaxon”								
21.	“Chor Minor”								
22.	“Ismoil Samoniy” mavzoleyi								
23.	“Nodir devon begi” madrasasi								
24.	“Ko'kaldosh” madrasasi								
25.	“Modarixon” madrasasi								
26.	“Abdullaxon” madrasasi								
27.	“Kalon” masjidi								
28.	“B. Naqshband” ansambli								
29.	“Chor Bakr” ansambli								
30.	“Abduholiq G'ijduvoni” ansambli								
31.	“Bolahovuz” ansambli								

32.	Abu Ali Ibn Sino memorial muzeyi
33.	“Ark” tarixiy-o‘lkashunoslik muzeyi
34.	Boy savdogar uy-muzeyi
35.	Buxoro adabiyoti tarixi muzeyi
36.	Varaxsha keramikasi va tarixi Buxoro ko‘rgazmasi
37.	Buxoro suv ta‘minoti tarixi muzeyi
38.	Buxoro tasviriy san‘ati muzeyi
39.	Buxoro amirligi qonunchiligi va huquqi tarixi muzeyi
40.	Gilamlar muzeyi
41.	Yog‘och o‘ymakorligi ishlari ko‘rgazmasi
42.	Imom al-Buxoriy memorial muzeyi
43.	Poykent shahri tarixi muzeyi
44.	Mohi-Xossa dekorativ amaliy san‘ati muzeyi
45.	Naqshbandiya tariqati muzeyi
46.	Romitan tarix muzeyi
47.	Hunarmandchilik ishi tarixi muzeyi
48.	Xattotlik tarixi muzeyi
49.	Buxoro viloyati musiqali drama teatri
<b>Jizzax viloyati</b>	
50.	Zomin tumani tarixi muzeyi
51.	Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi
52.	Sharof Rashidov memorial muzeyi
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	
53.	Qashqadaryo tarixi va madaniyati davlat muzeyi
54.	Amir Temur nomidagi moddiy madaniyat tarixi muzeyi
55.	Shahrisabz shahridagi “Maqom muzeyi”
<b>Navoiy viloyati</b>	
56.	Navoiy viloyati tarix-o‘lkashunoslik muzeyi
57.	Karmana tumani Qosim Shayx muzey-kompleksi
58.	Qiziltepa tumani tarixi muzeyi
59.	Nurota tabiat-arxitektura kompleks muzeyi
<b>Namangan viloyati</b>	
60.	“Unbir Axmad” mavzoleyi
61.	“Bibimushkulkushod” ziyoratgohi
62.	“Chir-chir Momo” ziyoratgohi
63.	Namangan tarixi va madaniyati davlat muzeyi
64.	Kosonsoy tumani tarixi muzeyi
<b>Samarqand viloyati</b>	
65.	“Registon” ansambli
66.	“Shohi-Zinda” kompleksi
67.	“Oq Saroy” mavzoleyi
68.	“Xo‘ja Abdi-Darun” kompleksi
69.	“Xo‘ja Axrori Vali” mavzoleyi
70.	“Mahdumi A‘zam” kompleksi
71.	“Imom al-Buxoriy” kompleksi
72.	“Amir Temur” mavzoleyi
73.	“Bibi-Xonim” kompleksi
74.	“Xoja Doniyor” mavzoleyi
75.	“Hazrati Xizr” masjid

76.	“Ruhobod” mavzoleyi
77.	“Imom al-Moturudiy” mavzoleyi
78.	“Nodir Devonbegi” madrasasi
79.	“Hazrati Dovud” ziyoratgohi
80.	“Chorchinor” ziyoratgohi
81.	Ishtixon tumani tarixi muzeyi
82.	Kattaqo‘rg‘on shahar tarix-o‘lkashunoslik muzeyi
83.	Paxtachi tumani tarixi muzeyi
84.	Mirzo Ulug‘bek muzey kompleksi
85.	Sadriddin Ayniy uy-muzeyi
86.	Samarqand viloyati o‘lkashunoslik muzeyi
87.	Samarqand tarixi Afrosiyob muzeyi
88.	O‘zbekiston tarixi va madaniyati davlat muzeyi
89.	Samarqand davlat musiqa va drama teatri
<b>Surxondaryo viloyati</b>	
90.	Hakim At-Termiziy mavzoleyi
91.	“Kokildor Ota” Kanaka-mavzoleyi
92.	Qirq-qiz qal‘asi
93.	“Sulton Saodat” ansambli
94.	“Fayoz-tepa” qadimiy buddaviylik ibodatxonasi
95.	At-Termiziy mavzoleyi
96.	“Oq Ostona bobo” masjidi
97.	“Murchbobo” masjidi
98.	Termiz arxeologiya muzeyi
99.	Sapollitepa
100.	“Sharshara” sharsharalari
101.	“Jarqo‘rg‘on” minorasi
102.	So‘fi Alloyor masjidi
103.	Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri
<b>Farg‘ona viloyati</b>	
104.	Xudoyorxon saroyi
105.	Farg‘ona tarixi va madaniyati davlat muzeyi
106.	Modarixon mavzoleyi
107.	Marg‘ilon tarixi muzeyi
108.	“Dahma-va-Shahon” maqbarasi
109.	“Dasturxonchi” madrasasi
110.	“Olimjon hoji qabulxonasi”
111.	“Hojibek” madrasasi
112.	“Chalpak” madrasasi
113.	Erkin Vohidov uy-muzeyi
114.	“Alixonhoji” madrasasi
115.	“Said Axmadxo‘ja” madrasasi
116.	Jahonotin Uvaysiy uy-muzey
117.	“Puri Siddiq” ziyoratgohi
118.	Amaliy san‘at muzeyi
119.	Buyuk olimlar muzeyi
120.	Qo‘qon shahar adabiyoti muzeyi
121.	Muqimiy hujra-muzeyi
122.	Hamza uy-muzeyi

<b>Xorazm viloyati</b>	
123.	“Ichon-qal’a” kompleksi
124.	O‘zbekiston zamonaviy san’at muzeyi
125.	Xorazm tarixi va adabiyoti muzeyi
126.	Xorazm viloyati musiqali drama teatri
<b>Toshkent shahar</b>	
127.	Toshkent teleminorasi
128.	“Ko‘kaldosh” madrasasi
129.	“Hazrati Imom” kompleksi
130.	“Abdulqodir sim” madrasasi
131.	“Mingo‘rik” arxeologik obyekti
132.	“Shayx Xovandtohur” kompleksi
133.	Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik katta teatri
134.	Rim-Katolik ibodatxonasi
135.	Evangel-lyuteran cherkovi
136.	O‘zbekiston Rus Akademik drama teatri
137.	Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri
138.	O‘zbekiston davlat drama teatri

Ilova: Ishchi guruhi tomonidan madaniyat obyektlari va muassasalariga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha ro‘yxatga, zarurat bo‘lganda, o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son qaroriga  
4-ILOVA

### **Madaniyat obyektlari va muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha ishchi guruh**

#### **TARKIBI**

1. A.A. — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari, *ishchi guruh raisi*  
Abduxakimo  
v
2. B.S. — O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri  
Sayfullayev
3. Sh.M. Sadikov — O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va  
kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri
4. A.Y. — O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining birinchi o‘rinbosari  
Xaydarov
5. S.S. — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosari  
Saidkarimov
6. A.U. Akkulov — O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi  
v.v.b.
7. *kelishuv* — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati xodimi  
*asosida*
8. B.R. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas‘ul xodimi  
Raxmatullay  
ev

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.01.2019-y., 07/19/4095/2426-son; 20.06.2020-y., 07/20/4755/0783-son)